



O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008  
UDK: 37

# TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

[www.journal.namspi.uz](http://www.journal.namspi.uz)

**Bosh muharrir:** Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov  
**Mas'ul muharrir:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov  
**Mas'ul muharrir o'rinbosari:** Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

## TAHRIR HAY'ATI

**Aniq va tabiiy fanlar:** k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

**Texnika fanlari:** t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar:** s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

**Pedagogika fanlari:** p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

**Filologiya fanlari:** fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

**Texnik muharrir:** R.Tursunov

**Tahririyat manzili:** Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

**Pochta indeksi:** 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

**Email:** [Info@namspi.uz](mailto:Info@namspi.uz)

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

## KICHIK GURUH FAOLIYATINI NEMIS TILI DARSIDA PADLET PLATFORMASIDA TASHKIL ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

*Tolipova Shaxloxon Baxromjon qizi*

*Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

<https://orcid.org/0009-0002-6829-3818>

[shaxloxontolipova1998@gmail.com](mailto:shaxloxontolipova1998@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nemis tili darslarida kichik guruh faoliyatini Padlet platformasi asosida tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Kommunikativ yondashuv, konstruktivistik ta'lim, kooperativ o'qitish va raqamli pedagogika tamoyillarining integratsiyasi yoritilgan. Padlet platformasining kollaborativ ta'limdagi didaktik imkoniyatlari hamda uning talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik va reflektiv fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari nemis va boshqa xorijiy tillarni o'qitish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Padlet platformasi, kichik guruh faoliyati, nemis tili, kollaborativ ta'lim, kommunikativ kompetensiya, raqamli pedagogika, kooperativ o'qitish.

## ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛЫХ ГРУПП НА ПЛАТФОРМЕ PADLET НА ЗАНЯТИЯХ ПО НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ

**Аннотация.** В статье проанализированы теоретико-методологические основы организации деятельности малых групп на платформе Padlet при обучении немецкому языку. Раскрыта интеграция коммуникативного подхода, конструктивистской теории обучения, кооперативного обучения и принципов цифровой педагогики. Обоснованы дидактические возможности Padlet в организации коллаборативного обучения и его влияние на развитие коммуникативной компетенции, навыков сотрудничества и рефлексивного мышления студентов. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования практики преподавания немецкого и других иностранных языков.

**Ключевые слова:** платформа Padlet, деятельность малых групп, немецкий язык, коллаборативное обучение, коммуникативная компетенция, цифровая педагогика, кооперативное обучение.

## THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ORGANIZING SMALL GROUP ACTIVITIES ON THE PADLET PLATFORM IN GERMAN LANGUAGE CLASSES

**Abstract.** *This article examines the theoretical and methodological foundations of organizing small-group activities through the Padlet platform in German language teaching. It highlights the integration of the communicative approach, constructivist learning theory, cooperative learning, and digital pedagogy. The study substantiates Padlet's didactic potential for collaborative learning and its contribution to developing students' communicative competence, collaboration skills, and reflective thinking. The findings provide methodological guidance for improving the teaching of German and other foreign languages through digital technologies.*

**Keywords:** *Padlet platform, small group activities, German language, collaborative learning, communicative competence, digital pedagogy, cooperative learning.*

## KIRISH

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga jadal integratsiyalashuvi xorijiy tillarni o'qitish metodikasining mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda onlayn hamkorlik platformalari va interaktiv ta'lim muhitlaridan foydalanish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Mazkur tendensiya, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirish hamda hamkorlikka asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Padlet platformasi matn, tasvir, audio, video va gipermurojaatlarni yagona virtual makonda birlashtirish, shuningdek, foydalanuvchilarning real vaqt yoki asinxron rejimda birgalikda faoliyat yuritishini ta'minlaydigan zamonaviy raqamli ta'lim muhiti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Nemis tili ta'limida ushbu platformadan foydalanish o'quv materiallarini taqdim etish, kichik guruhlar doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro fikr almashish va reflektiv tahlilni rivojlantirish uchun ham keng metodik imkoniyatlarni yaratadi. Padlet platformasi hamkorlikka asoslangan ta'limni tashkil etish uchun qulay raqamli muhit yaratadi. U foydalanuvchilarga umumiy virtual doskada bir vaqtda ishlash, fikr almashish, multimedia resurslarini joylashtirish va o'zaro muloqot qilish imkonini beradi. Natijada kichik guruh faoliyati auditoriyadan tashqarida ham davom etib,

talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko'nikmalari, reflektiv fikrlashi va raqamli savodxonligini rivojlantiradi.

Xorijiy tillarni o'qitishda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Quizlet va Kahoot kabi platformalar keng tadqiq etilgan. Padlet platformasi ham o'rganilgan, ammo mavjud ishlarda asosan uning umumiy funksiyalari yoki individual ta'limdagi qo'llanilishi yoritilgan. Nemis tili darslarida Padlet asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari esa yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Amaliyotda Padlet ko'proq o'quv materiallarini ulashish vositasi sifatida qo'llanilib, uning kollaborativ ta'limni tashkil etish va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni boshqarish imkoniyatlari to'liq foydalanilmayapti. Shuningdek, Padletni kommunikativ, kooperativ va konstruktivistik yondashuvlar bilan integratsiyalovchi metodologik model hamda samaradorlikni baholash mezonlari mavjud emas. Shu bois tadqiqotning ilmiy bo'shlig'i kichik guruh faoliyatini Padlet platformasi asosida tashkil etishning yagona nazariy-metodologik modelini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi nemis tili darslarida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish va uning samaradorligini belgilovchi pedagogik omillarni asoslashdan iborat. Gipotezaga ko'ra, Padletning kollaborativ imkoniyatlarini kommunikativ va konstruktivistik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko'nikmalari, reflektiv tafakkuri va raqamli savodxonligini an'anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq rivojlantiradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Padletni kichik guruh faoliyatini boshqaruvchi didaktik muhit sifatida talqin etish, integratsiyalashgan nazariy-metodologik model va samaradorlikni baholash mezonlarini taklif etishdan iborat. Olingan natijalar nemis va boshqa xorijiy tillarni o'qitishda raqamli kollaborativ ta'limni takomillashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga jadal integratsiyalashuvi xorijiy tillarni o'qitish metodikasida yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan ta'lim, kichik guruhlarda ishlash va veb-platformalardan foydalanish masalalari zamonaviy lingvodidaktikaning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda Padlet, Google Classroom, Moodle kabi platformalar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, refleksiv faoliyatni tashkil etish hamda hamkorlikdagi bilim qurilishini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida keng o'rganilmoqda.

Xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalarini tizimli o'rgangan olimlardan biri M.Warschauer kompyuter vositasida tashkil etilgan muloqotni til o'rganish jarayonini faollashtirishini, ayniqsa, hamkorlikka asoslangan virtual muhit talabalarning muloqotga kirishish chastotasini oshirishini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, raqamli platformalar o'quvchilarga autentik kommunikativ vaziyatlar yaratib beradi hamda bilimni ijtimoiy konstruktivizm tamoyillari asosida shakllantirishga xizmat qiladi, shunga qaramay, tadqiqotlarda aynan Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etish mexanizmlari yetarlicha ochib berilmagan. C.Chapelle esa til o'rganishni axborot kommunikatsiya texnologiyalari nazariyasini rivojlantirib, elektron muhitda til o'qitish samaradorligini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqqan. U raqamli ta'lim vositalarining lingvistik, pedagogik va texnologik komponentlari uyg'unlashgandagina o'quv natijalari yuqori bo'lishini asoslaydi. C.Chapelle talabalarning interaktiv faoliyati, qayta sharh olish imkoniyati va avtonom o'rganish ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratganini kuzatdik. Shunga qaramasdan, olim tadqiqotlarida ijtimoiy shakllarda tashkil etilgan kichik guruhlarining onlayn faoliyatiga oid metodik model taklif etilmagan. Hamkorlikdagi ta'limning nazariy asoslari D.Johnson va R.Johnson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular kooperativ ta'limning besh asosiy komponentini, ya'ni ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual mas'uliyat, yuzma-

yuz muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar va guruh refleksiya-sini ajratib ko'rsatadilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, kichik guruhlarda tashkil etilgan ta'lim talabalarning akademik natijalari, motivatsiya va kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur nazariy yondashuv Padlet platformasida hamkorlikni tashkil etish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlari orasida raqamli ta'lim muhitlari va xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar sezilarli o'rin egallaydi. E.S. Polat masofaviy ta'lim va telekommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Olim loyiha metodi, hamkorlikda o'qitish va internet-resurslardan foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. E.S.Polatning fikriga ko'ra, elektron muhit o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish bilan birga, o'zaro muloqotni ham faollashtiradi. Mazkur tadqiqotlarda aynan Padlet singari zamonaviy veb-xizmatlardan foydalanish masalalari cheklangan. Rus olimi M.N. Yevstigneyev axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida chet tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. U elektron resurslarning motivatsion va interaktiv salohiyatini yuqori baholaydi hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ularning ahamiyatini asoslaydi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari keng tadqiq etilgan. J.J. Jalolov xorijiy tillarni o'qitish metodikasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, kommunikativ yondashuvni zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etadi. Olimning fikricha, o'quv jarayoni muloqotga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. U.N. Yusupov zamonaviy pedagogik texnologiyalarni xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish masalalarini o'rganib, innovatsion yondashuvlar talabalarning kommunikativ faolligini oshirishini asoslaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy, MDH va o'zbek olimlarining aksariyati hamkorlikdagi ta'lim, kommunikativ yondashuv va raqamli

texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishini e'tirof etadilar. Barcha tadqiqotlarda o'quvchi faoliyatining markaziy o'ringa qo'yilishi, interaktivlik, refleksiya va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish umumiy jihat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ayrim farqlar ham mavjud. Xorijiy olimlar (M.Warschauer, C.Chapelle va boshqalar) ko'proq raqamli muhitning nazariy asoslari hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari konsepsiyasiga e'tibor qaratgan bo'lsalar, MDH olimlari asosan masofaviy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv masalalarini tadqiq qilganlar. O'zbek olimlari esa innovatsion pedagogik texnologiyalar va kommunikativ metodikani milliy ta'lim tizimiga moslashtirishga ko'proq urg'u berganlar, ammo mavjud tadqiqotlarning aksariyatida Padlet platformasining aynan nemis tili darslarida kichik guruh faoliyatini tashkil etishdagi didaktik imkoniyatlari, guruh ichidagi hamkorlik mexanizmlari, tengdoshlararo o'qitish texnologiyasi hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ta'siri kompleks tarzda o'rganilmagan. Hamkorlikdagi ta'lim, raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa ham, nemis tili darslarida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning yaxlit nazariy-metodologik modeli ishlab chiqilmagan. Jumladan:

1. Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari yetarli darajada aniqlanmagan;
2. Nemis tili darslarida Padletdan foydalanishning metodik mexanizmlari tizimlashtirilmagan;
3. Tengdoshlararo hamkorlik va kommunikativ faoliyatni shakllantirishning konseptual modeli ishlab chiqilmagan;
4. Padlet asosidagi kichik guruh faoliyatining kommunikativ kompetensiyaga ta'siri empirik jihatdan yetarlicha asoslanmagan;
5. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari sharoitiga moslashtirilgan metodik tavsiyalar mavjud emas.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning ilmiy bo'shlig'i kichik guruh faoliyatini nemis tili darsida Padlet platformasida tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini yagona konseptual model sifatida ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.


### METOD

Mazkur tadqiqot aralash metod yondashuvi asosida tashkil etilib, ushbu yondashuv miqdoriy va sifat tadqiqot usullarini o'zaro integratsiyalash orqali tadqiq etilayotgan hodisani har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Aralash metodni tanlashdan maqsad Padlet platformasida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko'nikmalari va o'quv motivatsiyasiga ta'sirini nafaqat statistik jihatdan baholash, balki ushbu o'zgarishlarning sabablarini ham sifat ma'lumotlari asosida izohlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot doiradasida konvergent parallel dizayn qo'llanildi. Mazkur dizaynda miqdoriy va sifat ma'lumotlari bir vaqtning o'zida yig'ildi, alohida tahlil qilindi hamda yakuniy bosqichda o'zaro integratsiyalash orqali umumiy xulosalar chiqarildi. Bunday yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasasining nemis tili yo'nalishida tahsil olayotgan 30 nafar 2–3-bosqich talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Ishtirokchilar maqsadli tanlash usuli asosida saralandi. Ularning barchasi nemis tilini CEFR bo'yicha B1–B2 darajasida egallagan hamda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish bo'yicha boshlang'ich tajribaga ega edi. Tadqiqot boshlanishidan oldin talabalar uchun Padlet platformasidan foydalanish va kichik guruhlarda hamkorlikni tashkil etishga oid qisqa trening o'tkazildi. Tadqiqotda aralash metodologiya qo'llanildi. Miqdoriy ma'lumotlar eksperimentdan oldin va keyin o'tkazilgan pre-test hamda post-test so'rovnomalari orqali yig'ildi. So'rovnoma kommunikativ kompetensiya, hamkorlik ko'nikmalari, raqamli ta'limga jalb etilganlik va o'quv motivatsiyasini baholashga qaratildi. Sifat ma'lumotlari dars kuzatuvlari, yarim tuzilgan intervyular, reflektiv kundaliklar hamda Padlet platformasida yaratilgan postlar, izohlar va guruh ishlari

tahlili asosida olindi. Eksperimental mashg'ulotlar 8 hafta davom etdi. Bu davrda talabalar Padlet platformasida brainstorming, loyiha ishlari, hamkorlikda matn yaratish, muammoli vaziyatlarni hal etish, rolli o'yinlar, lug'at xaritalari tuzish va tengdoshlararo baholash kabi faoliyatlarni bajardilar. Tadqiqot instrumentlari sifatida 24 savoldan iborat 5 ballik Likert shkalasidagi so'rovnoma, kommunikativ kompetensiya testi, kuzatuv varaqasi, intervyu savollari, reflektiv kundalik, Padlet faoliyatini baholash mezonlari hamda tengdoshlararo baholash varaqasidan foydalanildi. Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati, bog'liq o'zgaruvchilar sifatida esa kommunikativ kompetensiya, hamkorlik ko'nikmalari va o'quv motivatsiyasi belgilandi. Talabalarning kursi, til darajasi, o'quv materiallari, mashg'ulot davomiyligi va o'qitish maqsadlari nazorat o'zgaruvchilari sifatida bir xil saqlandi. Instrumentlarning ishonchliligi IBM SPSS Statistics 29 dasturida Cronbach's Alpha koeffitsienti yordamida baholandi. Umumiy ko'rsatkich  $\alpha = 0,89$ , alohida o'lchovlar bo'yicha esa  $\alpha = 0,81-0,91$  oralig'ida bo'lib, instrumentlarning yuqori ichki mosligini tasdiqladi. Asosiy tadqiqotdan avval 10 nafar talaba ishtirokida pilot sinov o'tkazilib, uning natijalari asosida ayrim savollar takomillashtirildi. Tadqiqotda mazmuniy va konstrukt validligi hamda metodologik triangulyatsiya qo'llanildi. Miqdoriy ma'lumotlar tavsifiy statistika, Paired Samples *t*-test va Pearson korrelyatsiya tahlili yordamida ( $p < 0,05$ ) qayta ishlanib, sifat ma'lumotlari tematik tahlil asosida umumlashtirildi. Yakuniy bosqichda miqdoriy va sifat natijalari integratsiyalanib, Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslaridagi nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy samaradorligi yuzasidan kompleks ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Aralash metod asosida mualliflik modelini ishlab chiqdik va ushbu modelga tayanib mazkur tadqiqotni olib bordik.



1-rasm. Kichik guruh faoliyatini padlet platformasida tashkil etishning mualliflik konseptual modeli.

Mazkur konseptual model nemis tili darslarida kichik guruh faoliyatini Padlet platformasi asosida tashkil etishning nazariy va amaliy tuzilmasini ifodalaydi. Model kommunikativ yondashuv, kooperativ ta'lim, konstruktivistik pedagogika va raqamli ta'lim tamoyillariga tayanadi. Unda o'quv jarayoni maqsadni belgilash, hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, Padlet vositalari orqali o'quv topshiriqlarini bajarish, baholash hamda natijalarni tahlil qilish bosqichlari asosida tashkil etilgan. Modelni qo'llash natijasida talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko'nikmalari, reflektiv fikrlashi, raqamli savodxonligi va o'quv motivatsiyasini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Model oliy ta'lim muassasalarida nemis tili mashg'ulotlarini raqamli muhitda samarali tashkil etish uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

## NATIJALAR

Tadqiqot davomida Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri tajriba va nazorat guruhlari kesimida tahlil qilindi. Eksperimental tadqiqotda jami 30

nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 15 nafari tajriba guruhini, 15 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba boshlanishidan oldin ikkala guruhning boshlang'ich bilim va ko'nikmalari pre-test orqali baholandi. Natijalar tajriba guruhi ko'rsatkichi 42%, nazorat guruhi esa 44% ni tashkil etganini ko'rsatdi. Bu esa tajriba boshlanishida ikki guruh o'rtasida sezilarli farq mavjud emasligini va ularning deyarli teng boshlang'ich darajaga ega ekanligini tasdiqlaydi. Sakkiz haftalik tajriba-sinov ishlari yakunlangandan so'ng post-test o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 54% ga yetdi, nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 50% ni tashkil etdi. Tajriba-sinovi doirasida tajriba guruhida o'zlashtirish darajasi 12 foizga, nazorat guruhida esa 6 foizga oshgan.

1-jadval.

**Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining samaradorligi**  
(%)

| Boshlang'ich |  |  |  | O'zgarish |
|--------------|--|--|--|-----------|
|              |  |  |  |           |
|              |  |  |  |           |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tajriba va nazorat guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Boshlang'ich bosqichda guruhlar natijalari bir-biriga yaqin bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyati tashkil etilgan tajriba guruhida o'sish sur'ati nazorat guruhiga nisbatan ikki baravar yuqori kuzatildi. Bu esa Padlet platformasining hamkorlikdagi ta'limni tashkil etishdagi ijobiy pedagogik salohiyatini ko'rsatadi.

### MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat edi. Tajriba

yakunida tajriba guruhi 54 %, nazorat guruhi esa 50 % natijani qayd etdi. Boshlang'ich ko'rsatkichlarga nisbatan tajriba guruhida 12 %, nazorat guruhida esa 6 % o'sish kuzatildi. Ushbu natijalar Padlet platformasi asosida tashkil etilgan hamkorlikdagi ta'lim talabalarning muloqot faolligi, o'zaro hamkorligi va ta'lim jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada oshirganligini ko'rsatadi. Tahlillar Padlet platformasi nafaqat o'quv jarayonini raqamlashtirish vositasi, balki ijtimoiy konstruktivistik ta'lim muhitini shakllantiruvchi samarali didaktik vosita ekanligini tasdiqladi. Platforma talabalarga fikr almashish, muammolarni hamkorlikda hal etish, o'zaro fikr-mulohaza bildirish va tengdoshlar tavsiyalari asosida bilimlarini takomillashtirish imkonini yaratdi. Aynan shu jarayon kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilar qarashlari bilan hamohangdir. M. Warschauer kompyuter texnologiyalari asosidagi muloqot chet tilini o'rganishda kommunikativ faollikni oshirishini ta'kidlagan bo'lsa, ushbu tadqiqot ham Padlet platformasi talabalarning muloqot intensivligini kuchaytirishini tasdiqladi. C. Chapelle tomonidan ilgari surilgan interaktivlik, tezkor qayta aloqa va faol ishtirok tamoyillari Padletdagi guruh muhokamalari hamda o'zaro baholash jarayonida o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, D. Johnson va R. Johnsonning kooperativ ta'lim nazariyasida qayd etilgan ijobiy o'zaro bog'liqlik va individual mas'uliyat tamoyillari ham tadqiqot natijalarida namoyon bo'ldi. Tadqiqot raqamli pedagogika, kooperativ ta'lim va ijtimoiy konstruktivizm yondashuvlarini integratsiyalash orqali Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik modelini empirik jihatdan asoslab berdi. Ishlab chiqilgan yondashuv oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitishda hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish, talabalarning faolligini oshirish, tengdoshlararo baholashni yo'lga qo'yish va kommunikativ topshiriqlarni raqamli muhitda amalga oshirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Tadqiqot 30 nafar talaba ishtirokida, bitta oliy ta'lim muassasasida va sakkiz hafta davomida amalga oshirilgani sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab

etiladi. Shuningdek, talabalarning raqamli kompetensiyasi, motivatsiyasi va texnik sharoitlari natijalarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda respondentlar sonini ko'paytirish, bir nechta oliy ta'lim muassasalari ishtirokida ko'p markazli eksperimentlar o'tkazish hamda Padlet platformasini sun'iy intellekt, gamifikatsiya va adaptiv ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu metodikani boshqa xorijiy tillarni o'qitish jarayonida qo'llash va uning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi hamda raqamli hamkorlikka asoslangan ta'limning zamonaviy xorijiy til ta'limidagi ahamiyatini yana bir bor ko'rsatadi.

## XULOSA

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi nemis tili darslarida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda uning talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sirini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot aralash metod yondashuvi asosida tashkil etilib, miqdoriy va sifat ma'lumotlarini integratsiyalash orqali tadqiqot muammosiga kompleks yondashildi. Tadqiqot natijalari Padlet platformasidan foydalanish talabalarning hamkorlikdagi o'quv faoliyati, muloqot faolligi va o'quv jarayonidagi ishtirokini faollashtirganligini ko'rsatdi. Tajriba guruhi yakuniy ko'rsatkichi 54% ni, nazorat guruhi esa 50% ni tashkil etdi. Shuningdek, tajriba guruhida o'zlashtirish darajasi boshlang'ich natijaga nisbatan 12% ga, nazorat guruhida esa 6 % ga oshgani Padlet platformasida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining ijobiy pedagogik ta'sirini namoyon etdi. Sifat tahlili natijalari ham talabalar o'rtasida hamkorlik, refleksiya, tengdoshlararo o'qitish va kommunikativ faollikning kuchayganligini tasdiqladi. Gipotezani tekshirish natijalari Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati kommunikativ

kompetensiyani rivojlantirishda ijobiy tendensiyani yuzaga keltirishini ko'rsatdi. Biroq tanlangan respondentlar hajmining cheklanganligi va statistik farqning yetarli darajada katta emasligi sababli ushbu gipoteza amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlangan bo'lsa ham, statistik nuqtai nazardan qo'shimcha tadqiqotlar bilan mustahkamlanishi zarur. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda ijtimoiy konstruktivizm, hamkorlikdagi ta'lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalari konsepsiyalari integratsiyalashgan holda Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik modeli taklif etildi. Mazkur model raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy asoslarini boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik yondashuvning oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati o'qituvchilarga hamkorlikdagi topshiriqlarni samarali boshqarish, talabalar faolligini oshirish, o'zaro baholashni tashkil etish va raqamli ta'lim texnologiyalaridan maqsadli foydalanish imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda respondentlar sonini ko'paytirish, tajribani turli oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirish, kuzatuv muddatini uzaytirish hamda Padlet platformasini sun'iy intellekt, gamifikatsiya va boshqa raqamli vositalar bilan integratsiyalashgan holda o'rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, ushbu metodik yondashuvning boshqa xorijiy tillarni o'qitish jarayonidagi samaradorligini qiyosiy tahlil qilish ham istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Chapelle C.A. Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 213 p.
2. Creswell J.W., Plano Clark V.L. Designing and Conducting Mixed Methods Research. – 3rd ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2018. – 492 p.
3. Dillenbourg P. What do you mean by collaborative learning? // Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches / Ed. P. Dillenbourg. – Oxford: Elsevier, 1999. – P. 1–19.
4. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika. – 6-e izd. – Moskva: Akademiya, 2009. – 336 s.

5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
6. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – 5th ed. – Boston: Allyn & Bacon, 1999. – 464 p.
7. Mahkamova M.X. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ingliz tilini o'qitish. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.
8. Polat E.S. Teoriya i praktika distantsionnogo obucheniya. – Moskva: Akademiya, 2004. – 416 s.
9. Saidahmedov S.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
10. Sysoyev P.V. Informatsionnye i kommunikatsionnye tekhnologii v obuchenii inostrannomu yazyku // Yazyk i kultura. – 2012. – № 4 (20). – S. 120–133.